

O‘ZBEKISTONDA TURK TILINI O‘RGANISHGA BO‘LGAN QIZIQISHNING OSHISHI: SABABLARI VA ISTIQBOLLARI

Nadejda Tsoy

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar Universiteti

turk tili o'qituvchisi.

ORCID 0000-0002-5439-0265

ANNOTATSIYA

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turk tilini o‘rganuvchilar sonining sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda. Ushbu hodisa madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar kabi bir qator sabablar bilan izohlanadi. Mazkur maqolaning birinchi qismida aynan shu omillar tahlil qilinadi, madaniy, iqtisodiy va ta’limiy omillarning o‘rni o‘rganiladi hamda ikki tomonlama til almashinuvining rivojlanish istiqbollari yoritiladi.

Maqolaning ikkinchi qismida esa O‘zbekiston universitetlarida turk tilini o‘rganish bo‘yicha dasturlarni taklif qilayotgan fakultetlar sonining tez sur‘atlar bilan ortib borishi ijtimoiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, turk tili o‘qitilayotgan yetakchi oliy ta’lim muassasalari o‘rganiladi, foydalanilayotgan o‘quv materiallari va dars berish metodikasi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, lingvistika bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa fakultetlarda ham turk tilining ikkinchi xorijiy til sifatida joriy etilishi o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Turk tili, o‘qitish metodologiyasi, lingvistika, moslashuv, O‘zbekiston universitetlari.

АННОТАЦИЯ

В последние годы наблюдается значительное увеличение числа изучающих турецкий язык в Узбекистане. Это явление объясняется множеством факторов, которые можно разделить на культурные, экономические и социальные. Первая часть данной статьи посвящена анализу причин этого феномена, исследованию роли культурных, экономических и образовательных факторов, а также выявлению перспектив развития двусторонних языковых обменов.

Вторая же часть статьи рассматривает социальный аспект стремительного увеличения числа факультетов, предлагающих программы по изучению турецкого языка в университетах Узбекистана. А также исследует ведущие высшие учебные заведения, где преподаётся турецкий язык, анализируются используемые учебные материалы и методологии преподавания.

Кроме того, исследуются внедрения турецкого языка на других факультетах, не связанных с лингвистикой, как второй иностранный язык.

Ключевые слова: Турецкий язык, методология преподавания, лингвистика, адаптация, университеты Узбекистана.

ABSTRACT

In recent years, there has been a significant increase in the number of people studying the Turkish language in Uzbekistan. This phenomenon can be explained by a variety of factors, which can be divided into cultural, economic, and social categories. The first part of this article is devoted to analyzing the reasons behind this phenomenon, examining the role of cultural, economic, and educational factors, as well as identifying the prospects for the development of bilateral language exchanges.

The second part of the article examines the social aspect of the rapid increase in the number of faculties offering Turkish language programs in universities across Uzbekistan. It also explores the leading higher education institutions where Turkish is taught, analyzes the teaching materials and methodologies used. Additionally, it investigates the integration of the Turkish language into other faculties unrelated to linguistics, as a second foreign language.

Keywords: Turkish language, teaching methodology, linguistics, adaptation, universities of Uzbekistan.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda xorijiy tillarni o'rganish globallashuv, xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalar jarayonida muhim o'rin egallaydi. Mazkur maqolaning maqsadi — O'zbekistonda turk tiliga bo'lgan qiziqishning oshish sabablari, o'quv dasturlarining tahlili hamda o'quvchilar va o'qituvchilar duch kelayotgan muammolarni aniqlashdan iborat. Metodologik jihatdan ushbu ish mavjud adabiyotlar tahlili, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar, shuningdek, O'zbekistondagi turk tilini o'rgatish dasturlari tahliliga asoslanadi.

O'zbekistonda turk tilini o'rganish sezilarli darajada ommalashib bormoqda va bu holat tasodifiy emas. Bu, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni o'z ichiga olgan omillar majmuasi bilan bog'liq. O'zbekiston va Turkiya qadimdan boy tarixiy merosga ega bo'lib, bu meros Buyuk Ipak yo'li va Usmoniylar imperiyasi davriga borib taqaladi. Bu umumiy tarix madaniy almashinuv uchun mustahkam asos yaratadi.

Hozirgi davrda esa Turkiyaning "yumshoq kuchi" — ya'ni kino va seriallari — katta mashhurlikka erishib, turk madaniyatining unsurlarini o'zbek xalqining kundalik hayotiga olib kirmoqda. Ushbu omillar tufayli yosh avlod bilan bir qatorda sobiq sovet davrida tarbiya olgan odamlar ham tilni chuqurroq tushunish va turkcha kontentdan zavq olish maqsadida turk tilini o'rganishga katta qiziqish bildirmoqda.

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi umumiy tarixiy ildizlar va madaniy an‘analarni “qardosh xalq” tiliga va madaniyatiga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytirmoqda.

O‘zbekistonda turk tilining ommalashuvi

Ma'lumki, Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi tarixiy va madaniy aloqalar turk tiliga bo‘lgan qiziqishni oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ikkala xalqning tarixiy, diniy va an‘analardagi umumiy jihatlari Turkiyaning O‘zbekiston talabalari uchun madaniy jozibasini yaratadi. Turkiyada ishlab chiqarilgan teleko‘rsatuvlar va filmlar ham tilning ommalashishida muhim rol o‘ynaydi, chunki ular O‘zbekistonda tez-tez namoyish etilib, keng omma tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston fuqarolari uchun Turkiyaga uch oylik vizasiz kirish tizimi va ikkala tilning bir turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lishi millatlar orasidagi yaqinlashuvga katta hissa qo‘shdi.

Davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlash va Turkiyaning “Türkiye Bursları” nomli ta’lim dasturlari ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu dastur doirasida Turkiya O‘zbekistondan kelgan talabalar uchun ta’lim dasturlarini faol rivojlantirmoqda. Turkiya universitetlari o‘zbek talabalariga stipendiyalar taklif qilib, ularni tilni o‘rganishga rag‘batlantirmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekistonda turk madaniy markazlari va maktablari ochilmoqda, ularda turk tili o‘qitiladi. Bu ta’lim muassasalari turli jamg‘armalar, shuningdek tijorat va davlat tashkilotlari tomonidan moliyalashtiriladi.

Yana bir muhim jihat — Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi ikki tomonlama siyosiy munosabatlarning yuqori darajada bo‘lishidir. Davlat rahbarlari darajasida muntazam uchrashuvlar o‘tkazilishi, kelishuvlarning imzolanishi va ta’lim hamda madaniyat sohasidagi qo‘shma tashabbuslar O‘zbekistonda turk tilining xorijiy tillar qatorida strategik jihatdan muhim yo‘nalish sifatida ommalashishiga katta hissa qo‘shmoqda.

Sir emas, Turkiya O‘zbekistonning eng yirik iqtisodiy hamkorlaridan biri bo‘lib, bu hamkorlik faol rivojlanmoqda. Turkiyalik kompaniyalar O‘zbekiston iqtisodiyotiga faol sarmoya kiritmoqda, bu esa turk tilini biladigan mutaxassislarga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Ko‘plab talabalar til o‘rganishni Turkiya kompaniyalarida nufuzli ish topish yoki O‘zbekiston-Turkiya qo‘shma loyihalarida ishtirok etish imkoniyati sifatida ko‘rishmoqda.

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Turkiya O‘zbekiston iqtisodiyotiga eng yirik investorlardan biri bo‘lib, bu yangi ish o‘rinlari va biznes imkoniyatlarini yaratmoqda. Turk tilini bilish, ayniqsa, turk kapitaliga ega kompaniyalarda ishlashni yoki Turkiyadagi hamkorlar bilan biznes yuritishni istaganlar uchun juda muhim ko‘nikmaga aylanmoqda. Aloqalar

mustahkamlanishi bilan yangi ish va biznes imkoniyatlari ochilmoqda, bu esa turk tilini bilishni muhim raqobat ustunligiga aylantirmoqda.

Shuningdek, sezilarli ijtimoiy omil ham mavjud. Turkiyaga ish izlab migratsiya qilish keng tarqalgan amaliyotga aylangan. Ko'plab o'zbeklar hayot sharoitlarini yaxshilashni maqsad qilgan va til bilimi yangi mamlakatga moslashishni osonlashtiradi. Bundan tashqari, o'zbeklar va turk fuqarolari o'rtasidagi aralash nikohlarning soni ortib borayotgani tilni o'rganishga qo'shimcha qiziqish uyg'otmoqda, chunki oilalar har ikkala ota-onaning madaniyati va tilini saqlab qolishga intilishadi. Migratsiya jarayoni ham muhim rol o'ynaydi — ko'plab o'zbeklar Turkiyada ish qidiradi va tilni bilish bu jarayonni soddalashtiradi. Shu bilan birga, aralash nikohlar va oilaviy aloqalarning ko'payishi turk tilini o'rganishga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda.

Shunday qilib, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarning uyg'unligi O'zbekistonda turk tilini o'rganishni ayniqsa dolzarb qiladi, yangi imkoniyatlar ochadi va ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Shuningdek, O'zbekistonda ko'plab davlat va xususiy ta'lim muassasalari turk tili kurslarini taklif eta boshladi, bu esa uni keng ommaga yanada yaqinlashtirmoqda. Xususiy til maktablari, davlat dasturlari va universitet fakultetlari o'quv materiallari va dars berish metodikalarini faol rivojlantirib, til va madaniyatni chuqurroq o'rganish imkonini yaratmoqda.

O'zbekistonda turk tilini o'rgatish metodologiyasi

Turk tilini o'rganish ko'p qirrali jarayon bo'lib, turli xil metodik yondashuvlarni qo'llashni talab etadi. O'qitish metodologiyasining asosiy jihatlari orasida kommunikativ yondashuv, multimedia resurslaridan foydalanish, madaniy kontekstga moslashish va tilni amaliy qo'llashga urg'u berish kiradi. O'zbekistonda turk tilini samarali o'qitish uchun mahalliy o'qituvchilar Turkiyaning yetakchi lingvistlari, turkologlari va filologlaridan ta'lim olib, har yili Turkiyaning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida malaka oshiradilar. Shu asosda ular til o'rganishni samarali qilishga qaratilgan turli metodikalarni faol qo'llaydi. Umuman olganda, ikki yo'nalish ajratish mumkin: Turkiyada ishlab chiqilgan klassik turk metodikalari va ularni o'zbek talabalarining xususiyatlariga moslashtirish, shuningdek, o'zining ta'lim yondashuvlarini yaratish.

O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida turk tilini o'qitish bir necha asosiy metodologik yondashuvlar va o'quv materiallariga tayangan holda amalga oshiriladi.

Turk metodikalarining asosiy jihatlaridan biri — kontekstga asoslangan o'qitish bo'lib, bunda talabalar tilni haqiqiy vaziyatlar orqali o'rganadilar, masalan, xarid qilish, sayohat, ish yoki ijtimoiy muloqotlar. O'qituvchilar mashg'ulotlarni dialoglar,

rol o'yinlari shaklida tashkil etadilar, bu esa og'zaki nutq va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga turtki bo'ladi.

Keyingi muhim metod — kommunikativ yondashuv bo'lib, u zamonaviy tillarni o'rgatish metodikalarining asosini tashkil etadi. Bu yondashuv muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga urg'u beradi va talabalar tilni haqiqiy hayotiy vaziyatlarda faol qo'llash imkonini beradi. O'zbekiston universitetlarining ko'pchiligi turk tilini o'qitishda aynan shu yondashuvdan foydalanadi, u tilni amaliy ishlatishga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu metodda audio va video materiallardan faol foydalanish, talabalarni dialoglar va rol o'yinlarida ishtirok ettirish o'z ichiga oladi, bu esa muloqot ko'nikmalarining tez rivojlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, turk metodikalari talabalarni multimediya materiallari orqali faol jalb qiladi: ona tilida tayyorlangan audio va video materiallar talabalarni haqiqiy til muhiti bilan tanishtirishga xizmat qiladi.

Multimedia resurslaridan foydalanish — zamonaviy texnologiyalar til o'rganishda yangi imkoniyatlar ochib beradi. Video, audio materiallar va interaktiv platformalar kabi multimedia vositalari o'quv jarayonini yanada qiziqarli va rang-barang qiladi. Turk tilidagi filmlar, seriallar va qo'shiqlardan foydalanish talabalarni til muhiti bilan yanada chuqurroq tanishtiradi va tinglab tushunish ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. Mamlakatdagi barcha oliy ta'lim muassasalari proyektorlar, televizorlar va boshqa texnik vositalar bilan jihozlanganligi sababli, o'qituvchilar uchun interaktiv darslarni tashkil etish ancha osonlashdi. Shuningdek, internetga kirish imkoniyati ta'lim sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lish va ularga tezkor javob berishni ta'minlaydi.

Turk tilini o'rganishda Duolingo, Türkçe Öğreniyorum va boshqa ko'plab onlayn resurslar va platformalardan foydalanish o'quv jarayonining muhim qismiga aylangan. Bu talabalar uchun tilni nafaqat sinfda, balki darslardan tashqarida ham o'rganishni davom ettirish imkonini beradi. Ba'zi universitetlar o'z dasturlarida raqamli o'quv materiallari va interaktiv mashqlarni faol joriy etmoqda.

Ta'limning individualizatsiyasi va har bir talaba uchun alohida yondashuv ham o'qitishda muhim o'rin tutadi. Turli o'rganish uslublari va tayyorgarlik darajalarini hisobga olib, o'qituvchilar metodlar va materiallarni har bir talabaga moslashtirishlari kerak. Bu, ayniqsa, maxsus ehtiyojlari bo'lgan talabalar uchun qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish yoki tilni professional maqsadlarda o'rganayotganlar uchun maxsus materiallardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Madaniy kontekstni moslashtirish — til o'rganish madaniy jihatlarni tushunmasdan mumkin emasligidan kelib chiqadi. O'quv dasturlari turk madaniyati, tarixi va an'analar elementlarini o'z ichiga olishi, shuningdek, an'anaviy bayramlar,

oshxona va adabiyot haqida muhokamalarni ham o'z ichiga olishi lozim. Bu talabalar tilni nafaqat o'rganish, balki uning kontekstini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Amaliy qo'llanilishi tilni samarali o'rgatish metodikasining muhim qismi hisoblanadi. Talabalar tilni haqiqiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar — sayohatlar, ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot yoki ish hujjatlari yozishda. Loyihalar, amaliyotlar va almashinuv dasturlari esa talabalar motivatsiyasini oshirishga va o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishga katta yordam beradi.

Jahon miqyosida tan olingan metodikalardan tashqari, O'zbekistondagi turk tili o'qituvchilari ko'pincha Turkiyaning yetakchi til markazlarida qo'llaniladigan usullarga tayangan holda dars beradilar. Bilamizki, Turkiyaning deyarli har bir yirik universitetida chet elliklarga turk tilini o'rgatish uchun til markazi mavjud. Eng keng tarqalganlari — Ankara universiteti huzuridagi TÖMER (Turk va chet tillari markazi) hamda Yunus Emre til maktabidir. Ushbu markazlarda “Yeni Hitit”, “Yedi İklim” va “Yeni İstanbul” kabi darsliklardan keng foydalaniladi. Bu darsliklarda kommunikativ yondashuv va kundalik hayotdagi muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga urg'u berilgan bo'lib, o'qish, yozish, tinglab tushunish va og'zaki nutq bo'yicha to'rt asosiy yo'nalish orqali o'qitish amalga oshiriladi. Shuningdek, darsliklar grammatikani, lug'atni, og'zaki mashqlar va tinglab tushunishni o'z ichiga olgan kompleks materiallarni taqdim etadi. Turkiyada malaka oshirgan yoki akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etgan o'qituvchilar ushbu metodikalardan o'z darslarida faol foydalanadilar.

O'zbekistonda turk tilini o'rganish dasturlarini taklif qiluvchi universitetlar:

1. Toshkent davlat jahon tillari universiteti turk tilini o'rganish bo'yicha ixtisoslashgan dasturlarni taklif etuvchi yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biridir. Sharq tillari kafedrasida turk tili va adabiyoti yo'nalishi tashkil etilgan bo'lib, u kelajakdagi o'qituvchilar, tarjimonlar hamda xalqaro munosabatlar sohasidagi mutaxassislarni tayyorlaydi. Universitet shuningdek, Ankara universiteti va Istanbul universiteti kabi Turkiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan faol hamkorlik qiladi, bu esa tajriba almashinuvi va o'qitish metodikalarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. O'zbekiston Milliy universiteti ham filologiya va tillar fakulteti doirasida turk tili bo'yicha ta'lim dasturlarini taklif etadi. So'nggi yillarda universitet Turkiya bilan akademik almashinuv dasturlari orqali hamkorlikni mustahkamladi. Bu esa turk tili o'qituvchilariga Turkiyada malaka oshirish va o'z metodik yondashuvlarini yangilash imkonini berdi. Dasturlar nafaqat tilni amaliy o'zlashtirishni, balki turk madaniyati, tarixi va adabiyotini ham chuqur o'rganishni o'z ichiga oladi.

3. Samarqand davlat universiteti Sharqshunoslik kafedrası negizida turk tili bo'yicha ta'lim dasturini taklif etadi. Ushbu dastur lingvistikadan tortib, Turkiyaning madaniy va ijtimoiy jihatlarigacha bo'lgan keng qamrovli fanlarni o'z ichiga oladi. Universitet, shuningdek, Turkiyaning bir qator universitetlari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim almashinuvi loyihalarida ishtirok etib kelmoqda.

4. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti poytaxtimizdagi eng nufuzli oliy o'quv yurtlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda turk tilini o'qitish bo'yicha yuqori malakali professor-o'qituvchilar faoliyat yuritadi. Universitet o'qituvchilari va talabalari muntazam ravishda Turkiyaga amaliyot, malaka oshirish va ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish uchun boradilar hamda o'z universitetlarini faxr bilan namoyon etadilar.

Yuqorida nomi tilga olingan oliy ta'lim muassasalaridan tashqari, deyarli har bir o'zini hurmat qiladigan davlat va xususiy universitetda xorijiy tillar kafedrası mavjud bo'lib, bu yerda ingliz tili bilan bir qatorda turk tili ham muhim o'rin egallaydi. Shu sababli har yili ko'plab mutaxassislar turk tili o'qituvchisi sifatida ishga kirib, ushbu sohaning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shmoqdalar.

O'zbekiston universitetlarida turk tilini o'qitish turk va mahalliy metodikalar uyg'unligiga asoslanadi. Bu yondashuv talabalarni samarali o'qitish imkonini beradi, chunki u nafaqat turk tilining xususiyatlarini, balki O'zbekistonning madaniy va til kontekstini ham hisobga oladi. Kommunikativ metodlar, grammatik bog'liqlik va interaktiv ta'lim kabi yondashuvlardan foydalanish orqali o'qituvchilar talabalarda yuqori natijalarga erishmoqdalar. O'qitish metodikasining muhim jihati — uning talabalar ehtiyojlariga moslasha olishi bo'lib, bu tilni tez egallash bilan birga, madaniyatlararo muloqot uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikmalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Fakultetlarning yangidan ochilishi va boshqa fakultetlarda turk tilining integratsiya qilinish sabablari.

Filologiya va tarjimonlik fakultetlaridan tashqari, turk tilini o'rgatish boshqa yo'nalishlarda ham faol amalga oshirilmoqda. Turk tilini o'qitish keng tarqalgan fakultetlar qatoriga quyidagilar kiradi: siyosatshunoslik, iqtisodiyot, jurnalistika, harbiy ish va boshqa ko'plab sohalar.

Iqtisodiy hamkorlik va mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj. Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar mustahkamlanib borayotgan bir paytda, turk tilini biladigan mutaxassislarga bo'lgan talab ortmoqda. Bu ehtiyoj nafaqat lingvistika sohasida, balki biznes, xalqaro munosabatlar, muhandislik va turizm kabi sohalarda ham sezilmoqda. Natijada, turk tili o'qitilishi bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning ajralmas qismi hisoblangan yangi fakultetlar ochilmoqda. Masalan, O'zbekiston

Milliy universiteti (NUUz), Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (TashGUv), Diplomiya universiteti va O'zJOKUda (O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti) xalqaro munosabatlar va iqtisodiyot fakultetlarida turk tili majburiy fan sifatida joriy etilgan.

Siyosiy qo'llab-quvvatlash va akademik almashinuvlar. Turkiya hukumati O'zbekistonda ta'lim dasturlarini rivojlantirishni faol ravishda qo'llab-quvvatlamogda. *Türk İşbirliği ve Koordinasyon Ajansı Başkanlığı* (TİKA) — Turkiya Hamkorlik va Koordinatsiya Agentligi hamda Yurtdışı Türkler ve Akraba Topluluklar Başkanlığı (YTB) — Chet eldagi turklar va ular bilan qarindosh jamoalar bo'yicha boshqarma tomonidan moliyalashtiriladigan stipendiya dasturlari turk tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirmogda. Ko'plab o'zbekistonlik talabalar akademik almashinuv dasturlari orqali Turkiyada tahsil olish imkoniyatiga ega bo'lib, bu esa o'z navbatida, turk tili asosiy fan sifatida o'qitiladigan yangi fakultetlarning ochilishiga turtki bermoqda.

Madaniy diplomatiya va ta'lim integratsiyasi. Turkiya Markaziy Osiyoda, jumladan O'zbekistonda ham, madaniy diplomatiyani faol rivojlantirmogda. Bu yo'nalishda turk madaniy markazlari va kutubxonalarining universitetlarda ochilishi muhim o'rin tutadi. Ushbu tashabbuslar talaba va akademik doiralar orasida turk tilining ommalashuviga xizmat qilmogda. Natijada, nafaqat filologik, balki menejment, marketing va siyosatshunoslik kabi sohalarda ham yangi ta'lim dasturlari ochilmogda.

O'zbekistonda turk tilini o'qitish: ta'limiy yondashuvlarning moslashtirilishi

Turk metodikalarining o'zbek talabalari uchun moslashtirilishi.

O'zbekistondagi o'qituvchilar ko'pincha talabalar va turk tilining ona tilida so'zlashuvchilari o'rtasidagi madaniy va til farqlari bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Masalan, o'zbek va turk tillari bir turkiy tillar oilasiga mansub bo'lsa-da, bu talabalar uchun ma'lum afzalliklar yaratadi, lekin ayni paytda ba'zi grammatik tuzilmalarni o'rganishda murakkabliklarni ham keltirib chiqaradi. Chunki har ikki tilda ayrim grammatik qoidalar va ifoda uslublari bir-biridan farq qiladi..

Ba'zi o'qituvchilar O'zbekistondagi ta'lim muhitining o'ziga xos jihatlari va shaxsiy tajribalariga asoslangan innovatsion metodikalarni ishlab chiqishmogda. Ushbu yondashuvlar ta'lim jarayonining milliy xususiyatlarini integratsiya qilishni o'z ichiga oladi, masalan, til o'yinlari, guruhli munozaralar va fanlararo bog'liqlikka yo'naltirilgan loyiha asosidagi topshiriqlardan faol foydalanish. Bunday yondashuvning yaqqol namunasi sifatida grammatik korrelyatsiyani (taqqoslashni) keltirish mumkin. Unda o'qituvchilar turk va o'zbek tillari o'rtasidagi o'xshashlik va

farqlarni alohida ajratib ko'rsatadilar, bu esa talabalar uchun materialni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi. Bu metod ikki tilda yozilgan matnlar va o'quv materiallarini tayyorlashni ham o'z ichiga oladi, bunda har ikki tilning umumiy va farqli jihatlariga e'tibor qaratiladi. Natijada, murakkab grammatik tuzilmalarni tushunish ancha osonlashadi.

Shuningdek, o'qituvchilar o'zbek madaniy va ijtimoiy kontekstini inobatga olgan holda kontekstual mashqlar yaratish ustida faol ishlamoqdalar. Masalan, Turkiyadagi hayotga oid ko'plab mavzular O'zbekiston hayotining real holatiga moslashtiriladi, bu esa talabalarga o'rganilayotgan material bilan shaxsiy tajribalari o'rtasida bog'liqlikni his qilish imkonini beradi.

XULOSA

O'zbekistonda turk tili iqtisodiy, madaniy va siyosiy omillarning uyg'unligi sababli tobora ommalashib bormoqda. Ushbu tendensiya ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning kuchayishi hamda o'zbek yoshlari orasida turk madaniyati va iqtisodiy imkoniyatlarga qiziqishning oshishi natijasi ekanligini ta'kidlash muhimdir. Kelajakda yanada rivojlanish uchun ta'lim sifatini yaxshilash, yangi o'quv materiallarini ishlab chiqish va ta'lim dasturlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratish lozim, shunda turk tilini o'rganishga bo'lgan ortib borayotgan talabni qondirish mumkin bo'ladi.

Biroq, O'zbekistonda turk tilini o'rganish istiqbollari ijobiy bo'lib qolmoqda. Ta'lim dasturlari soni ko'payishi va ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi bilan tilga bo'lgan qiziqishning yanada oshishi kutilmoqda. Ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, almashinuv va stajirovka dasturlarini rivojlantirish ham ushbu tendensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistondagi universitetlarda turk tilini o'rganish dasturlarining kengayishi bir qator omillar bilan bog'liq bo'lib, ularning orasida iqtisodiy hamkorlik, madaniy diplomatiya va ta'lim almashinuvlarini qo'llab-quvvatlash muhim o'rin tutadi. Turkiya tili kurslarining turli fakultetlarda joriy etilishi ushbu tilning turk-o'zbek hamkorligi ortib borayotgan sharoitda mutaxassislarni tayyorlashning ajralmas qismiga aylanganini ko'rsatmoqda.

Shunday qilib, O'zbekistonda turk tilini o'rganish mashhurligi ko'plab o'zaro bog'liq omillar bilan izohlanadi. Madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlar nafaqat tilga bo'lgan qiziqishni oshiradi, balki yoshlar uchun madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirish va yangi imkoniyatlar yaratishda yangi ufqlarni ochadi. Bu jarayon, albatta, davom etadi va ikki davlat o'rtasida mustahkam aloqalarni yuzaga keltiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. R. Veytsel. Markaziy Osiyo mamlakatlarida Turkiyaning madaniyat va ta'limga ta'siri. «Islom zamonaviy dunyoda». 2014; (1(33)): 26-32.
2. Kawar Abdulqader. «Turk tilini chet til sifatida o'rgatishda asosiy muammolar va yechimlar: Adabiyotlar sharhi». Journal of Humanities and Education Development (JHED), 6(5):61-66, 2024. DOI:10.22161/jhed.6.5.10.
3. [https://msu.dvaoblaka.ru/media/2024/03/6603e4c05d33d_IV%20Сборник%20%20МК%20\(22-23%20Декабря%202023%20года\).pdf](https://msu.dvaoblaka.ru/media/2024/03/6603e4c05d33d_IV%20Сборник%20%20МК%20(22-23%20Декабря%202023%20года).pdf)
4. Muhammad Hakimov. Chet tillarni masofadan o'rganish: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish istiqbollari. 2021. «Jamiyat va innovatsiyalar – Society and Innovations» maxsus soni – 8(2021) / ISSN 2181-1415.
5. Arslanbayeva Z. «O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi madaniyatlarning umumiyliigi». «Iqtisodiyot va jamiyat», №2(93)-1, 2022.
6. Hayriye Kahveci. Markaziy Osiyoga nisbatan Turkiyaning tashqi siyosati: mintaqaviylik va yumshoq kuchning rivojlanishi. DOI: 10.20991/allazimuth.1310530. All Azimuth, V2, N2, 2023, 195-218.
7. Beloglazov Albert, Nadirov Rustem. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Markaziy Osiyoda Turkiyaning «yumshoq kuchi»: integratsion potensial. Manuskript, 2021, 14-jild, 7-son, 1381-138.
8. Elif Eda Sarikay, İbrahim Doyumğa, Sunay Akkay, Fatih Kana. «Chetdan til sifatida turk tilini o'rganayotganlarning turk madaniyatiga oid qarashlari». Aydın TÖMER Til jurnali, 8-yil, 2-son, sentabr 2023, 393-420.
9. Tosun, Cengiz. «Turk tilini chet til sifatida o'rgatish». Journal of Language and Linguistic Studies, 1-jild, 1-son, 2005, 22-28-betlar.
10. «TIKA» vakolatxonasi rahbari bilan uchrashuv [Elektron resurs]. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi rasmiy sayti. URL: <https://uzbektourism.uz/ru/vstrechi-i-intervyu/vstrecha-s-glavoj-predstavitelstva-tika-v-uzbekistane> (oxirgi murojaat sanasi: 23.08.2018).
11. http://www.erasmusplus.uz/images/shared/file/Журнал_HEREs_№9_сентябрь_2021.pdf
12. <https://central-asia.institute/uzbeksko-tureczkie-kulturnye-svyazi-vazhnyj-faktor-druzhestvennyh-otnoshenij-dvuh-stran/>